

**TA'LIM MUASSASALARIDAGI AGRESSIV HOLATLARNING  
KELISHMOVCHILIKLARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI****Nizamova Nodira Yuldasheva**Namangan viloyati Namangan  
tumani 22-maktab psixologi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada agressiv holatlar va konfliktogen hodisalarning pedagogik psixologik tavsifi haqida so'z borib, bir qator ilmiy-psixologik mushohadalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** konflikt, agressiv holatlar, ziddiyatli vaziyat, pedagogik nizo, adovat, xulq-atvor, munosabat, muloqot, anglashilmovchilik, muhit.

Insoniyatning tarixiy o'tmishiga nazar tashlar ekanmiz, konfliktni hamisha ijtimoiy taraqqiyotning doimiy yo'ldoshi ekanligiga guvoh bo'lamiz, chunki odamlar bor joyda ziddiyatlar mavjud bo'lgan va bo'laveradi. Konfliktlarni o'rgasnish alohida mustaqil yo'nalish, konfliktologiya fani sifatida shakllangan. Pedagogik konflikt o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'lim jarayonida kuzatiladigan ziddiyatlar, tortishuvlar kelishmovchiliklar, qaramaqarshiliklarni ifodalaydi. Konflikt –sub'yektlarning qarama-qarshi harakatlaridagi salbiy emotsiyalar kuzatuvidagi o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladigan muhim ziddiyatlarni hal qilish usulidir. Konflikt paydo bo'lishi uchun sub'yektlarda qarama-qarshi yo'nalishlarning mavjudligi va ular orasidagi kurash holati yetarli bo'ladi. Konfliktidan oldin uning latent - yashirin bosqichi shart hisoblanib, unda tashqi harakatlarni istisno qilganda konflikt barcha elementlari mavjud bo'ladi. O'z navbatida bu bosqich konflikt rivojlanishining bir qator izchil jarayonlarini yoki davr(etap)larini o'z ichiga oladi. Birinchi davr - obyektiv konfliktli vaziyatning yuzaga kelish davri. Ikkinchi davr - bunday vaziyatda sub'ektlar (yoki hech bo'lmaganda sub'ektlarning biri) tomonidan o'z manfaatlarini anglab etish davri. Uchinchi davr – o'z



manfaatlarini qondirish uchun to‘siqni anglab etish (kognitiv konfliktida – o‘zga qarashlarni anglash) davri. Bu to‘siqlar uch turda bo‘lishi mumkin.

Birinchidan, bu to‘siqlar bo‘lg‘usi konfliktning doimiy ishtirokchilari deb qaralishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslarning pozitsiyalariga bog‘liq emas, balki ob‘ektiv vaziyatdan kelib chiqishi mumkin. Masalan, ximiya zavodi atmosferani ifloslantirib atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha talablarni doimiy ravishda buzib kelgan. Sababi - mazkur kimyoviy ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan suvni muhofazalash inshootlarining sanoatda ishlab chiqilmaganligidadir. Zavodning manfaati - bu mazkur vaziyatni o‘zgartirish, oshkora huquqbuzarlikka barham berishdir. Zavod bilan konfliktlashuvchi tarafning o‘zi yo‘q. Bu erda konfliktli vaziyat bevosita konfliktni yuzaga keltirmaydi. Ikkinchidan, ishtirokchilarning o‘z sub‘ektiv xususiyatlari ularning manfaatlarini qondirish uchun to‘siq bo‘lishi mumkin. Masalan, zavod misolida ko‘radigan bo‘lsak, uning o‘zi tozalash inshootlarini o‘z kuchlari bilan qurishi mumkin edi. Biroq kerakli tashabbusni namoyon etmagan. Biroq bunda zavodning tashqi tartibdagi konfliktga kirishuvini kuzata olmaymiz. Bu erda konflikt jamoa ichida bo‘lishi mumkin. Nihoyat, uchinchidan, tashqi to‘siq mavjud va ob‘ektiv belgilangan, masalan, tozalash inshootini qurish uchun qo‘shimcha harajatlarga vazirlikning mansabdor shaxsi tomonidan rozilikning berilmasligi. Bu holatda to‘siq etarli asosda mavjud va anglashilgan, bu esa, konfliktni keyingi rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. To‘rtinchi davr – o‘z manfaatlarini va boshqa tarafning tegishli qarshiliklarini anglash davri. Beshinchi davr - taraflarning biri tomonidan o‘z manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirgan muayyan harakatlarini o‘z ichiga oladi ( masalan, zavod ma‘muriyatining vazirlikka rasmiy murojaati). Biroq, bu murojaatga berilgan rad javobi konfliktni boshlanishi bo‘lib, unda ikkala tarafning pozitsiyalari aniq shakllangan bo‘ladi va bir-biriga nisbatan amaliy harakatlar boshlanadi. Bu oltinchi davrdir. Konflikt rivojlanishining oltita davri ko‘rsatilgan izchillikda bir-birining o‘rniga kelishi shart emas. Ba‘zilari tushirilib qoldirilishi, boshqalari takrorlanishi, ularning izchilligi boshqacha tarzda bo‘lishi



mumkin. YUqorida keltirilgan mantiqiy sxema konflikt tashqi rivojlanishining eng tirik misolidir. Tabiiyki, bunda konflikt ochiq shaklga ega bo'ladi, bu esa kamida uch holat bilan xarakterlanadi. Birinchidan, ishtirokchilarning har biri uchun konfliktning mavjudligi shakshubhasizdir; Ikkinchidan, harakatlar amaliy ahamiyat kasb etadi, ular tashqi shaklga ega bo'ladi, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, nizoli ob'ektni egallash bo'yicha harakatlar sodir etish, zo'rlik, tahdid va b.....

Uchinchidan, latent bosqichdan o'tgan konflikt haqida konfliktga u yoki bu darajada ta'sir etishga qodir bo'lgan uchinchi shaxslar, begona shaxslar xabardor bo'ladilar. Bunday ta'sir bir xil ahamiyatli bo'lmaydi. U ba'zida konfliktni sustlashtirishi yoki, aksincha, millatlararo konfliktlarda taraflarning yovuz kayfiyatlarini kuchaytirishi mumkin. Ba'zi konfliktlarda boshqacha darajadagi konfliktlarga o'tish kuzatiladi, masalan, shaxsiy munosabatlardan guruhlar o'rtasidagi konfliktga o'tish mumkin. Tashqi harakatlar. Konflikt odamlar, guruhlar yoki individlar o'rtasidagi munosabat bo'lganligi bois u har qanday ijtimoiy munosabat kabi yurisprudentsiyada yaxshi o'rganilgan yuridik ahamiyatli xulq-atvor singari kamida to'rtta elementdan iborat bo'ladi, ya'ni : konflikt sub'ektlari, ob'ekti, qarama-qarshi jarayonning ichki, ruhiy va tashqi tomonlari. Konfliktli xulq-atvor ob'ektiv jihatdan konflikt ishtirokchilarining qarama-qarshi yo'naltirilgan harakatlaridan iborat. Bu harakatlar orqali konfliktlashuvchi tomonlarning fikriy, ruhiy, irodaviy sohalardagi yashirin jarayonlari amalga oshiriladi. Har bir taraf manfaatlarining qaror topishiga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirning almashinishi va raqib manfaatlarini cheklash ijtimoiy hodisa sifatida konflikt mohiyatini tashkil etadi. Konflikt tuzilmasini to'liq tushunish va demak, u qanday rivojlangan va oqibatda nimani kutish mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'lish uchun yuqorida ko'rsatilgan elementlarni tahlil etish lozim. Ishtirokchilar tashqi harakatlarining o'zi harakat joyi va vaqtiga bog'liq holda o'z mohiyatini keskin o'zgartiradi. Vaqt omili juda muhim. Konfliktning makondagi chegaralarini aniq belgilash asosan xalqaro munosabatlarda muhim bo'lib, konflikt ishtirokchilarining muammolari bilan bog'liq. Pedagogik konfliktologiya psixologiya,



huquq nazariyasi, huquq sotsiologiyasi tamoyillari asosida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning kompleks yo'nalishi bo'lganligi sababli bu fanlarda mavjud bo'lgan ilmiy bilishning metodologik tamoyillari va usullaridan foydalanadi. O'z navbatida uning o'zi bu fanlarni o'z tadqiqotlarining natijalari va metodologik yutuqlari bilan boyitadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, pedagogik konfliktologiyaning muhim metodologik tamoyili - konfliktli vaziyatlarni hal qilishda kuch ishlatishni inkor etish ekanligini ta'kidlash o'ta muhimdir. Insoniyatning tarixiy o'tmishi zo'rlikning oqibatida behuda ekanligini tushunishga, maqbul va muqobil qarorlarni izlab topishga undaydi. Asosiy yondoshuvlar. Fan metodologiyasi. Ilmiy metodologiyaga falsafiy dunyoqarash bilan belgilanuvchi tadqiqotning muayyan bosh tamoyillari, mantiqiy usullari va maxsus metodlarini qo'llash sifatida qarash mumkin.

Pedagogik konfliktologiyaning metodologik asosi etarli darajada murakkabdir. U umumlashganlik darajasi va bilish vazifalariga qarab turlicha usullarni o'z ichiga oladi, ya'ni: - barcha aniq fanlarda va ilmiy bilishning turli bosqichlarida qo'llaniladigan umumiy falsafiy metodlar ; - muayyan huquqiy hodisalar va jarayonlarni bilishda foydalaniladigan maxsus yoki xususiy metodlar: statistik, aniq-sotsiologik, qiyosiyhuquqiy, psixologik, matematik metodlar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Isaev I.F. O'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyati: Darslik. Talabalar uchun nafaqa. yuqoridarslik. muassasalari. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2002. - 208s.
2. Abdullayeva Sh.X. Pedagogik faoliyat va professional kompetentlik: tushunchalar uyg'unligi//Pedagogik mahorat. 2018., № 3. – B.70-73. (19.00.00; № 4)
3. Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o'rganish/To'ychiyeva GulxumorToshkent.2008 y 5. Ergeshova D.Q., Najimov M.K. Yuridik konfliktologiya: qo'llanma – T.: TDYuI, 2007. – 97 b.